O‘SMIRLARDA TOLERANTLIKNI SHAKILLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN DASTUR SAMARADORLIGI

I.I.Qozoqova

Mas'ul muallif: Qozoqova Intizor Ismoyiljonovna.

e-mail: intizorqozoqova2@gmail.com

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Qozoqova, I. I. O‘SMIRLARDA TOLERANTLIKNI SHAKILLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN DASTUR SAMARADORLIGI / I. I. Qozoqova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 166–170.

Annotatsiya. Maqolada o‘smirlarda tolerantlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan trening dasturining samaradorligi empirik tahlil qilinadi. Tadqiqotda 160 nafar o‘smir nazorat (n=120) va tajriba (n=40) guruhlariga ajratilib, V.S. Magun va hamkasblarining «Tolerantlikni o‘lchash so‘rovnomasi» hamda G.U. Soldatova va hamkasblarining «Tolerantlik indeksi» ekspress-so‘rovnomasi yordamida tolerantlikning etnik, ijtimoiy, stereotiplarga munosabat, noaniqlikka tolerantlik, murosa va muloqotga tayyorlik hamda shaxs xususiyati sifatidagi ko‘rsatkichlari baholandi. Tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtacha rang yuqori bo‘lib, farqlar $p<0,05$ va $p<0,01$ darajasida statistik ahamiyatli ekani aniqlandi. Bu dasturning samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, o‘smirlar, trening dasturi, dastur samaradorligi, stereotiplar, murosa va muloqot, noaniqlikka tolerantlik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОГРАММЫ, НАПРАВЛЕННОЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье эмпирически анализируется эффективность тренинговой программы, направленной на формирование толерантности у подростков. 160 подростков были разделены на контрольную (n=120) и экспериментальную (n=40) группы. С помощью «Опросника для измерения толерантности» В.С. Магуна и соавторов и экспресс-опросника «Индекс толерантности» Г.У. Солдатовой и соавторов оценивались этническая и социальная толерантность, отношение к стереотипам, толерантность к неопределённости, готовность к компромиссу и диалогу, а также толерантность как черта личности. По всем показателям средний ранг в экспериментальной группе выше, различия значимы на уровнях $p<0,05$ и $p<0,01$. Это подтверждает эффективность программы.

Ключевые слова: толерантность, подростки, тренинговая программа, эффективность программы, стереотипы, компромисс и диалог, толерантность к неопределённости.

EFFECTIVENESS OF A PROGRAM AIMED AT DEVELOPING TOLERANCE IN ADOLESCENTS

Abstract. This article empirically analyzes the effectiveness of a training program aimed at developing tolerance in adolescents. A total of 160 adolescents were divided into a control group (n=120) and an experimental group (n=40). Using the Tolerance Measurement Questionnaire by V.S. Magun et al. and the Tolerance Index express questionnaire by G.U. Soldatova et al., the study assessed ethnic and social tolerance, attitudes to stereotypes, tolerance of ambiguity, readiness for compromise and dialogue, and tolerance as a personality trait. The experimental group had higher mean ranks on all indicators, and the differences were statistically significant at $p<0.05$ and $p<0.01$. The findings confirm the program’s effectiveness.

Keywords: training program, tolerance, adolescents, program effectiveness, stereotypes, compromise and dialogue, tolerance of ambiguity.

Kirish. Bugungi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda nafaqat bilim va oldatov ava salohiyatni, balki ijtimoiy mas’uliyat, faol fuqarolik pozitsiyasi va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, o‘smirlik davrida qadriyatlar va xulq-atvor me’yorlari faol rivojlanishini hisobga olganda, tolerantlikni maqsadli shakllantirish muhim psixologik-pedagogik vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda yosh avlodni ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ilgari surgan beshta muhim tashabbus yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirish, madaniy faolligi va kitobxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmonda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ijtimoiy faolligini oshirish vazifalari belgilangan [1].

Ta’lim muassasalarida ushbu vazifalarni amalga oshirishda psixologik xizmat alohida o‘rin tutadi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori

o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy asoslarini belgilaydi [2]. 2025-yil 24-dekabrdagi 818-son qaror esa alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiyalashuviga qaratilgan [3]. Bundan tashqari, 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qaror bilan tasdiqlangan dastur uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Mazkur islohotlar ta’lim muhitida o‘zaro hurmat, ijtimoiy qabul qilish va tolerant munosabatlarni rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.

Biroq tolerantlikni shakllantirish bir martalik tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklanmaydi. Bu jarayon o‘smirlarning yosh va individual xususiyatlariga mos, maxsus metodikalar asosida tashkil etilgan psixologik dasturlarni hamda ularning natijalarini ilmiy mezonlar asosida baholashni talab etadi. Shu bois tolerantlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish va uning samaradorligini tajriba hamda nazorat guruhlari natijalarini qiyoslash orqali aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi – o‘smirlarda tolerantlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan psixologik dasturning samaradorligini oldato baholash hamda dastur natijasida tolerantlik ko‘rsatkichlarida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Tolerantlik muammosi ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi va pedagogika kesishgan sohada o‘rganiladi. Mavzu xorijiy, MDH va o‘zbek olimlarining qarashlari asosida quyida qiyosiy tahlil qilindi.

Xorijiy tadqiqotlarda tolerantlik asosan ta’sub va guruhlararo munosabatlar doirasida o‘rganilgan. G. Allportning kontakt gipotezasiga ko‘ra, teng maqomdagi, umumiy maqsadli va qo‘llab-quvvatlangan sharoitdagi muloqot ta’subni kamaytiradi [4]; T. Pettigryu va L. Troppning yuzlab tadqiqotlarni qamragan meta-tahlili bu xulosani tasdiqladi [12]. H. Tajfel va J. Terner ijtimoiy o‘ziga xoslik nazariyasida o‘z guruhini olda ko‘rish va stereotiplarning shakllanish mexanizmini tushuntirdi [15]. S. Budner noaniqlikka chidamsizlikni shaxsning barqaror xususiyati sifatida tavsiflab, uni ta’subga moyillik bilan bog‘ladi [14]. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi trening sharoitida namuna orqali o‘rganishning rolini, E. Eriksonning identiklik konsepsiyasi esa o‘smirlikda o‘zini anglash va boshqalarni qabul qilish bog‘liqligini asoslaydi [6].

MDH olimlari tolerantlikni ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida talqin qiladi. A.G. Asmolov, G.U. oldatov ava L.A. Shaygerova uni etnik, ijtimoiy va shaxs xususiyati sifatidagi tolerantlik turlariga ajratib, tolerant ongni shakllantirishning markaziy tushunchasi deb hisoblagan [5]. G.U. Soldatova, L.A. Shaygerova va O.E. Sharovaning o‘smirlar uchun tolerantlik treningi rolli o‘yinlar va refleksiya orqali bag‘rikeng munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan [13]; V.S. Magun va hamkasblari esa bunday treninglar samaradorligini baholash metodikasini taklif etgan [9]. V.V. Boyko kommunikativ tolerantlikni suhbatdoshning individualligini qabul qilish va muloqotdagi noqulayliklarni boshqarish qobiliyati sifatida ta’riflagan [7].

O‘zbek olimlarining tadqiqotlarida tolerantlik yoshlar tarbiyasi va oldatov madaniyat bilan bog‘liq o‘rganilmoqda. I. Ergashev bo‘lajak ijtimoiy ish mutaxassislarida tolerantlikni shakllantirishning oldatov -psixologik asoslarini tahlil qilgan [8]. D. Narzullayev tolerantlikni shaxsning o‘ziga xosligidan voz kechishi emas, balki faol hayotiy pozitsiya deb hisoblab, uni shakllantirishda avtoritar emas, balki munozara va trening kabi demokratik, interaktiv usullar samarali ekanini ta’kidlaydi [10]. S. Salimova tolerantlikni yoshlar tafakkurini shakllantirish va ularni yot g‘oyalardan himoya qilish vositasi sifatida asoslaydi. A. Azimov va S. Jakbarov yoshlarga oid davlat siyosatida ularni diniy-mafkuraviy radikallashuvdan himoya qilish zarurligini qayd etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda 160 nafar o‘smir ishtirok etib, nazorat guruhi (n=120) va tajriba guruhi (n=40) shakllantirildi. Tajriba guruhida jamoaviy muhokama, rolli o‘yinlar, vaziyatli topshiriqlar va refleksiv mashqlarga asoslangan trening dasturi amalga oshirildi; nazorat guruhida an’anaviy tarbiyaviy ishlar davom ettirildi. Ma’lumotlar V.S. Magun, M.S. Jamkochyan va M.M. Magurening «Tolerantlikni o‘lchash so‘rovnomasi» [9] hamda G.U. Soldatova, O.A. Kravtsova, O.E. Xuxlayev va L.A. Shaygerovaning «Tolerantlik indeksi» ekspress-so‘rovnomasi [14] yordamida to‘plandi. Guruhlar mustaqil tanlanmalar bo‘lgani uchun noparametrik Man–Uitni U mezoni qo‘llanilib, oldatov ahamiyatlilik $p<0,05$ va $p<0,01$ darajalarida baholandi. O‘rtacha rangning yuqoriligi ko‘rsatkichning yuqori namoyon bo‘lishini bildiradi.

Natijalar tahlili va muhokama. Dastur samaradorligini baholashda tolerantlikning qaysi tarkibiy qismlarida o‘zgarish yuz bergani muhim, chunki tolerantlik yagona sifat emas, u madaniyatlararo munosabat, qarashlar xilma-xilligini qabul qilish, stereotiplardan xoli bo‘lish, noaniqlikka chidamlilik va murosaga tayyorlikni qamrab oladi. Nazorat guruhi ko‘rsatkichlari an’anaviy tarbiya sharoitidagi tabiiy (treningdan oldingi bazaviy) darajani, tajriba guruhi ko‘rsatkichlari esa trening ta’siridan oldat holatni aks ettiradi. Shu sababli guruhlar o‘rtasidagi farq dastur ta’sirining oldato ko‘rsatkichi sifatida talqin qilindi.

Dastlab V.S. Magun, M.S. Jamkochyan va M.M. Magurening «Tolerantlikni o‘lchash so‘rovnomasi» natijalari tahlil qilindi [9]. U etnik va madaniy tolerantlik, ijtimoiy va qarashlar tolerantligi, me’yor va stereotiplarga munosabat, noaniqlik va murakkablikka tolerantlik hamda murosa va muloqotga tayyorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganishga imkon beradi (1-jadval).

1-jadval.

V.S. Magun, M.S. Jamkochyan va M.M. Maguraning «Tolerantlikni o‘lchash so‘rovnomasi» orqali olingan tajriba va nazorat guruhlari natijalar tahlili (n=160)

№	Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	N	O‘rtacharang	U	p
1	Etnik va madaniy tolerantlik	Nazorat guruhi (n=120)	120	52,56	-7,088	0,020*
		Tajriba guruhi (n=40)	40	68,85		

№	Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	N	O‘rtacharang	U	p
		Jami:	160			
2	Ijtimoiy va qarashlar tolerantligi	Nazorat guruhi (n=120)	120	59,61	-9,061	0,001**
		Tajriba guruhi (n=40)	40	87,10		
		Jami:	160			
3	Me‘yor va stereotiplarga munosabat	Nazorat guruhi (n=120)	120	63,12	-8,718	0,002**
		Tajriba guruhi (n=40)	40	83,55		
		Jami:	160			
4	Noaniqlik va murakkablikka tolerantlik	Nazorat guruhi (n=120)	120	56,85	-6,996	0,037*
		Tajriba guruhi (n=40)	40	71,44		
		Jami:	160			
5	Murosa va muloqotga tayyorlik	Nazorat guruhi (n=120)	120	64,63	-9,465	0,001*
		Tajriba guruhi (n=40)	40	88,21		
		Jami:	160			

Izoh: **p<0,01; *p<0,05.

Etnik va madaniy tolerantlik omili. Omil o‘smirning boshqa millat va madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatini ifodalaydi. Tajriba guruhida o‘rtacha rang 68,85, nazorat guruhida 52,56 bo‘lib, farq 16,29 punktni tashkil etadi va p=0,020 (p<0,05) darajasida ahamiyatli.

Trening jarayonida o‘smirlar madaniy farqlar haqidagi rolli o‘yinlar va guruhiy muhokamalar orqali “o‘zga” guruh vakillari bilan teng sharoitdagi muloqot tajribasini olgan; Allport va Pettigryu–Tropp ko‘rsatganidek, bunday tashkil etilgan kontakt ta’subni kamaytiradi [4; 12]. Nazorat guruhida munosabat asosan oldato tengdoshlar ta’sirida spontan shakllangan. Ahamiyatlilik darajasining pastroqligi etnik tasavvurlarning chuqur ildiz otgani bilan izohlanadi.

Ijtimoiy va qarashlar tolerantligi omili. Ushbu omilga ko‘ra boshqalarning ijtimoiy, siyosiy va diniy qarashlari hamda hayot tarziga bag‘rikenglikni ifodalaydi. Tajriba guruhida o‘rtacha rang 87,10, nazorat guruhida 59,61; farq 27,49 punkt (p=0,001; p<0,01) va bu jadvaldagi eng katta farqdir.

Trening mashqlari aynan fikr xilma-xilligini qabul qilishga qaratilgan, munozara va refleksiya o‘smirga boshqa fikrni darhol rad etmay tahlil qilishni o‘rgatadi. Bunda Bandura ta’kidlagan namuna orqali o‘rganish ham ishlaydi: trener va guruh a’zolarining bag‘rikeng xulq-atvori kuzatilib, mustahkamlanadi [6]. Narzullayev ta’kidlaganidek, interaktiv va demokratik usullar avtoritar usullardan samaraliroq [10]; nazorat guruhida esa fikr xilma-xilligi bilan ishlash tizimli bo‘lmagan.

Me’yor va stereotiplarga munosabat omili. Omil o‘smirning ommalashgan stereotiplarga tanqidiy munosabatini, odamlarni guruhiy mansubligiga qarab baholashdan tiyilishini ifodalaydi. Tajriba guruhida o‘rtacha rang 83,55, nazorat guruhida 63,12; farq 20,43 punkt va p=0,002 (p<0,01) darajasida ahamiyatli.

Trening davomida stereotiplarni aniqlash, kelib chiqishini muhokama qilish va ularga qarshi misollar keltirish mashqlari o‘smirlarga insonni guruhiy mansubligidan qat’I nazar individual qadrlash imkonini bergan. Nazorat guruhida bunday refleksiv ish bo‘lmagani uchun stereotiplar “tayyor bilim” shaklida saqlanib qolgan. Omilning ijtimoiy qarashlar tolerantligi bilan birga yuqori farq berishi o‘zgalar haqidagi qarashlar va ularga munosabat o‘zaro bog‘liq o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Noaniqlik va murakkablikka tolerantlik omili. Ushbu omil o‘smirning noaniq va ziddiyatli vaziyatlarni xavf emas, tahlil qilinadigan vazifa sifatida qabul qilishini ifodalaydi. Tajriba guruhida o‘rtacha rang 71,44, nazorat guruhida 56,85; farq 14,59 punkt (p=0,037; p<0,05) va u jadvaldagi eng kichik farqdir.

Noaniqlikka chidamsizlik ta’subga moyillik bilan bog‘liq barqaror xususiyat sifatida tavsiflanadi, shuning uchun bu omil tolerantlikning chuqur, shaxsiy qatlamiga tegishli. Ochiq yakunli vaziyatlar va muammoli muhokamalar o‘smirlarning noaniqlikka chidamliligini oshirgan, biroq bunday xususiyat nisbatan barqaror bo‘lgani uchun qisqa ta’sirda sekinroq o‘zgargan. Uni mustahkamlash uchun trening davomiyligini oshirish zarur.

Murosa va muloqotga tayyorlik omili. Omil o‘smirning ziddiyatli vaziyatlarda kelishuvga intilishi va suhbatdoshini tinglashga tayyorligini ifodalaydi. Tajriba guruhida o‘rtacha rang 88,21, nazorat guruhida 64,63; farq 23,58 punkt va p=0,001 (p<0,01) darajasida ahamiyatli (ikkinchi eng katta farq).

Rolli o‘yinlar, guruhda ishlash va nizoli vaziyatlarni birgalikda hal etish topshiriqlari murosa va muloqot

ko‘nikmasini bevosita mashq qilish imkonini bergan; Boyko ta’riflagan kommunikativ tolerantlik aynan shunday faoliyatda shakllanadi [7]. Omilning ijtimoiy qarashlar tolerantligi bilan birga eng yuqori farqlar qatoriga kirishi tolerantlikning bilish tarkibiy qismi (qarashlarni qabul qilish) va xulq-atvor tarkibiy qismi (muloqotga tayyorlik) o‘zaro uzviy rivojlanishini ko‘rsatadi.

Natijalarni tekshirish uchun G.U. oldatov ava hamkasblarining «Tolerantlik indeksi» ekspress-so‘rovnomasi ham qo‘llanildi [14]. U etnik tolerantlik, ijtimoiy tolerantlik va tolerantlik shaxs xususiyati sifatida ko‘rsatkichlarini baholaydi (2-jadval).

2-jadval.

G.U. Soldatova, O.A. Kravtsova, O.E. Xuxlayev va L.A. Shaygerovaning «Tolerantlik indeksi» ekspress-so‘rovnomasi orqali olingan tajriba va nazorat guruhlari natijalar tahlili (n=160)

№	Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	N	O‘rtacharang	U	P
1	Etnik tolerantlik	Nazorat guruhi (n=120)	120	52,56	-7,088	0,020*
		Tajriba guruhi (n=40)	40	68,85		
		Jami:	160			
2	Ijtimoiy tolerantlik	Nazorat guruhi (n=120)	120	59,61	-9,061	0,001**
		Tajriba guruhi (n=40)	40	87,10		
		Jami:	160			
3	Tolerantlik shaxs xususiyati sifatida	Nazorat guruhi (n=120)	120	55,88	-7,633	0,011*
		Tajriba guruhi (n=40)	40	72,09		
		Jami:	160			

Izoh: **p<0,01; *p<0,05.

Etnik tolerantlik omili. Omil boshqa etnik guruh vakillariga ochiqlik va ularni qabul qilishga tayyorlikni ifodalaydi. Tajriba guruhida o‘rtacha rang 68,85, nazorat guruhida 52,56; farq p=0,020 (p<0,05) darajasida ahamiyatli.

Ikki xil metodikada etnik tolerantlik bo‘yicha tajriba guruhining ustunligi qayd etilishi trening ta’sirining tasodifiy emasligini ko‘rsatadi. Treningdan keyin o‘smirlar boshqa millat vakillari haqidagi tasavvurlarini muhokama qilish, madaniy farqlarni qimmatli resurs sifatida ko‘rish tajribasini egallagan; nazorat guruhida esa munosabat ko‘pincha stereotipik tasavvurlar darajasida qolgan.

Ijtimoiy tolerantlik omili. Omil turli ijtimoiy qatlam, maqom va imkoniyat vakillariga bag‘rikenglikni ifodalaydi. Tajriba guruhida o‘rtacha rang 87,10, nazorat guruhida 59,61; farq 27,49 punkt va p=0,001 (p<0,01) darajasida ahamiyatli.

Ko‘rsatkichning ikkala metodikada ham eng yuqori farq berishi trening ta’sirining ijtimoiy bag‘rikenglikda eng kuchli ekanini tasdiqlaydi. O‘smirlar yordamga muhtoj yoki “boshqacha” tengdoshlar o‘rnida o‘zini tasavvur qilish mashqlarini bajarib, empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni oshirgan bo‘lishi mumkin. Bu natija inklyuziv ta’limni rivojlantirish va alohida ta’lim ehtiyojli bolalarni jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan davlat siyosati bilan uyg‘undir.

Tolerantlik shaxs xususiyati sifatida omili. Omil tolerantlikning barqaror shaxsiy sifat, ya’ni o‘smirning umumiy bag‘rikeng munosabat uslubi sifatida namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Tajriba guruhida o‘rtacha rang 72,09, nazorat guruhida 55,88; farq 16,21 punkt va p=0,011 (p<0,05) darajasida ahamiyatli.

Integral va barqaror ko‘rsatkich bo‘lgani uchun u etnik va ijtimoiy tolerantlikka qaraganda sekinroq o‘zgaradi, shu bois ahamiyatlilik darajasi pastroq (p<0,05). Shunga qaramay, farq trening umumiy munosabat uslubiga ham ta’sir ko‘rsata boshlaganini bildiradi. Bu Erikson ta’riflagan o‘smirlikdagi identiklik shakllanishi bilan bog‘liq: boshqalarni qabul qilish tajribasi shaxsning barqaror sifatiga aylana boshlaydi.

Umuman, tolerantlikning barcha 8 ta ko‘rsatkichi bo‘yicha tajriba guruhining o‘rtacha rangi yuqori; eng kuchli farqlar ijtimoiy tolerantlik (27,49), murosa va muloqotga tayyorlik (23,58) hamda stereotiplarga munosabat (20,43) omillarida kuzatilib, trening mashq qilinadigan ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarga eng samarali ta’sir ko‘rsatgan, nisbatan barqaror ko‘rsatkichlar esa sekinroq o‘zgargan.

Xulosa. Nazariy tahlil va empirik natijalar o‘smirlarda tolerantlikni shakllantirish guruhlararo kontakt, stereotiplarni anglash, noaniqlikka munosabat hamda muloqot va murosa ko‘nikmalarining uzviyligiga tayanadigan ko‘p komponentli jarayon ekanini ko‘rsatdi. Yoshlarga oid davlat siyosatiga doir normativ hujjatlar bunday dasturlarni joriy etish uchun mustahkam asos yaratadi.

Tajriba guruhida V.S. Magun va hamkasblari so‘rovnomasining barcha beshta hamda «Tolerantlik indeksi» metodikasining barcha uchta ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘rtacha rang nazorat guruhidan yuqori bo‘lib, farqlar p<0,05 va p<0,01 darajasida ahamiyatli bo‘ldi. Eng katta farqlar ijtimoiy va qarashlar tolerantligi, murosa va muloqotga tayyorlik hamda me’yor va stereotiplarga munosabat omillarida qayd etildi. Bu dasturning samaradorligini tasdiqlaydi; uni ta’lim muassasalarida interaktiv usullar asosida muntazam qo‘llash va natijalarni keyingi kuzatuvlar orqali nazorat qilish tavsiya

etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son «O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 818-son qarori.

[4] Allport G. W. The Nature of Prejudice. - Cambridge, MA: Addison-Wesley, 1954. - 537 p.

[5] Асмолов А. Г., Солдатова Г. У., Шайгерова Л. А. О смыслах понятия «толерантность» // Век толерантности: научно-публицистический вестник. - Москва: Издательство МГУ, 2001. - Вып. 1.

[6] Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. - 247 p.

[7] Бойко В. В. Энергия эмоций в общении: взгляд на себя и на других. - Санкт-Петербург: Фолио, 1996.

[8] Ergashev I. Bo‘lajak ijtimoiy ish mutaxassislarida tolerantlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2025. - Vol. 6, Iss. 8 (Special Issue 08). - B. 220–226. - DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss8/S-pp220-226.

[9] Магун В. С., Жамкочьян М. С., Магура М. М. Оценка эффективности тренинга толерантности как средства воздействия на сознание старшеклассников // На пути к толерантному сознанию / под ред. А. Г. Асмолова. - Москва: Смысл, 2000.

[10] Narzullaev D. Principles for the Development of Pedagogical Tolerance Mindset in Master’s Degree Students // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2026. - Vol. 7, Iss. 1. - P. 322–328. - DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol7-iss1-pp322-328.

[11] Paluck E. L., Green D. P. Prejudice Reduction: What Works? A Review and Assessment of Research and Practice // Annual Review of Psychology. - 2009. - Vol. 60. - P. 339–367. - DOI: https://doi.org/10.1146/annurev.psych.60.110707.163607.

[12] Pettigrew T. F., Tropp L. R. A Meta-Analytic Test of Intergroup Contact Theory // Journal of Personality and Social Psychology. - 2006. - Vol. 90, No. 5. - P. 751–783. - DOI: https://doi.org/10.1037/0022-3514.90.5.751.

[13] Солдатова Г. У., Шайгерова Л. А., Шарова О. Е. Жить в мире с собой и другими: тренинг толерантности для подростков. - Москва: Генезис, 2000.

[14] Солдатова Г. У., Кравцова О. А., Хухлаев О. Е., Шайгерова Л. А. Психодиагностика толерантности личности. - Москва: Смысл, 2008.

[15] Tajfel H., Turner J. C. An Integrative Theory of Intergroup Conflict // The Social Psychology of Intergroup Relations / ed. by W. G. Austin, S. Worchel. - Monterey, CA: Brooks/Cole, 1979. - P. 33–47.